



## XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING

### Q A R O R I

2024-yil 15-mart

VI-69-29-5-0-K/24

Navoiy viloyati

#### **Viloyatda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari tariflarini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi "Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillshatirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6074-sonli Farmonining 3-bandiga asosan, 2020-yil 1-oktabrdan boshlab hududlarda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, suv ta'minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo'yicha dastlab narxlarni (tariflarni) tartibga solish organlari xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan ma'qullanganidan so'ng tasdiqlanishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabrdagi "Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-343-sonli qarori 17-ilovasiga asosan, ichimlik suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflar mahsulot tannarxiga kiritilgan xarajatlar, tizim obyektlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, moliyaviy xarajatlar, soliqlar (suvning texnologik jihatdan normativdan yuqori darajada sarflanganligi va yo'qotilganligi uchun soliqlardan tashqari) va boshqa majburiy to'lovlar shuningdek, "O'zsuvta'minot" AJning saqlash xarajatlari hamda tashkilotlar rentabellik darajasidan kelib chiqqan holda tariflarning joriy etilishi va har yili kamida bir marta qayta ko'rib chiqilishi belgilangan.

Viloyatda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash hamda oqova suv xizmatlari ko'rsatish ahvolini yanada yaxshilash maqsadida, tegishli soha rahbarlarining hisobotlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi xulosasidan kelib chiqib, bildirilgan taklif, fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda, xalq deputatlari viloyat Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi "Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillshatirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6074-sonli Farmoni va 2023-yil 24-oktabrdagi "Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada

takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-343-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ (Q. Sanaqulov), "Navoiy suv ta'minoti" AJ direktori O. Zaripov hamda "Issiqlik manbai" DUK boshlig'i O'. Elovning viloyatda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari yangi tariflarini belgilash yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining takliflari va xulosalari asosida ishlab chiqilgan, viloyatda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, suv ta'minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun narxlar (tariflar) ma'qullansin.

4. Viloyatda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflar) 1- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. "Navoiy suv ta'minoti" AJ (O. Zaripov), "Issiqlik manbai" DUK (O'. Elov), "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ (Q. Sanaqulov)ga tuman (shahar) hokimliklari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan birgalikda:

ommaviy axborot vositalari vakillari bilan hamkorlikda ichimlik suvi resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, ularni isrof qilmaslik yuzasidan targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish;

ichimlik suvidan samarasiz va noqonuniy foydalanishlarni oldini olish;

aholini toza ichimlik suv va oqova suv xizmatlari bilan uzluksiz ta'minlash choralari ko'rish;

viloyatda mavjud ichimlik suv va oqova suv tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash;

tashkilotning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohada ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilash, tarmoqdagi avariya holatlarini o'z vaqtida bartaraf etish;

xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga toza ichimlik suv va oqova suv xizmatlaridan bo'lgan mavjud qarzdorligini qisqartirish borasida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish hamda ichimlik suv va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borish tavsiya etilsin.

6. Xalq deputatlari viloyat Kengashining va viloyat hokimining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Sh. Raubayeva), axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (D. Mamarajabov), viloyat teleradiokompaniyasi (G'. Sultonov), "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalari tahririyati davlat korxonasi (B. Umarov)ga olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror 2024-yil 1-apreldan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimi o'rinbosari (E. Kamolov) hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish doimiy komissiyasi (S. Bazarova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TURSUNOV NORMAT  
TULKUNOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining  
2024-yil 15-martdagi  
VI-69-29-5-0-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

**Viloyatda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflar)**

**so'mda**

T/r	Tashkilot nomi	Mahsulot nomi	hajmi	Narxi (QQS siz)		
				aholi	budget tashkilotlari	boshqa ulgurji
1	"Issiqlik manbai" DUK	Ichimlik suvi	1m <sup>3</sup>	2700	6500	8000
2		Oqova suv	1m <sup>3</sup>	1600	4600	6000
3		Texnik suv	1m <sup>3</sup>	200	600	1300
4		Sug'orish suvi	1m <sup>3</sup>	400	1000	1000
5	"Navoiy suv ta'minoti" AJ	Ichimlik suvi	1m <sup>3</sup>	2700	6500	8000
6		Oqova suv	1m <sup>3</sup>	1600	4600	6000
7		Texnik suv	1m <sup>3</sup>	200	600	1300
8		Sug'orish suvi	1m <sup>3</sup>	400	1000	1000
9	"Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ Markaziy kon boshqarmasi	Ichimlik suvi	1m <sup>3</sup>	6500	8000	8000
10		Texnik suv	1m <sup>3</sup>	5950	5950	5950
11	"Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ Shimoliy kon	Ichimlik suvi	1m <sup>3</sup>	2700	8000	8000

12	boshqarmasi	Oqova suv	1m <sup>3</sup>	420	420	420
----	-------------	-----------	-----------------	-----	-----	-----

Xalq deputatlari Navoiy viloyati  
Kengashining  
2024-yil 15-martdagi  
VI-69-29-5-0-K/24 -son qaroriga  
2-ilova

**Xalq deputatlari viloyat Kengashining va viloyat hokimining o‘z kuchini  
yo‘qotgan ayrim qarorlari  
RO‘YXATI**

1. Viloyat hokimining 2018-yil 26-dekabrda “Viloyatdagi suv hisoblagichlari o‘rnatilmagan aholi xonadonlarining ichimlik suvi iste‘moli normalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Q-395-sonli qarori;
2. Viloyat hokimining 2019-yil 11-aprelda “Ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun maxsus ustama haq miqdori belgilash to‘g‘risida”gi Q-69-sonli qarori;
3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2020-yil 1-dekabrda “Navoiy suv ta‘minoti” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko‘rsatilayotgan ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari uchun tariflarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 12/100-sonli qarori.